

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“TASBEH” VA “HAYKU”NING JANRIY HAMDA USLUBIY TAFOVUTLARI

Atabayeva Guljahon Zufarovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, tayanch doktorant.

e-mail: guljakhonatabayeva@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0009-3598-6387>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida yangilik bo'lgan “tasbeh” janri haqida fikr yuritiladi. Yapon adabiyotining durdonasi — “hayku” hamda o'zbek adabiyotida novatorlikning yaqqol namunasi bo'lgan “tasbeh” janri qiyosiy tahlil qilinib, ularning shakl va mazmun jihatidan o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi. Shuningdek, maqolada haykuning jahon adabiyotida tutgan o'rnini, jumladan, uning o'zbek adabiyotiga ta'siri borasida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: tasbeh, hayku, detal, shakl va mazmun, peyzaj.

ЖАНРОВО- СТИЛИСТИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ "ТАСБЕХ" И "ХАЙКУ"

Атабаева Гулжахон Зуфаровна

Институт языков и культуры народов Центральной Азии Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, базовый докторант.

Аннотация.

В данной статье рассматривается жанр "тасбех" который является новшеством в современной узбекской литературе. Проводится сравнительный анализ жанра "хайку" являющегося жемчужиной японской литературы, и "тасбех" являющегося ярким примером новаторства в узбекской литературе, выявляются сходства и различия в форме и содержании. В данной статье рассматривается роль "Хайку" в мировой литературе, в том числе его влияние на узбекскую литературу.

Ключевые слова: "тасбех", "хайку", деталь, форма и содержание, пейзаж.

THE GENERIC AND STYLISTIC DIFFERENCES BETWEEN "TASBEH" AND "HAIKU"

Atabayeva Guljahon Zufarovna

Institute of Languages and Culture of the Peoples of Central Asia, Sharof Rashidov Samarkand State University, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the Tasbeh genre, which is a novelty in modern Uzbek literature. A comparative analysis is conducted between the "haiku" genre, which is a pearl of Japanese literature, and the "tasbeh" genre, which is a vivid example of innovation in Uzbek literature, identifying similarities and differences in form and content. This article examines the role of "Haiku" in world literature, including its influence on Uzbek literature.

Keywords: "tasbeh" "haiku", detail, form and content, landscape.

Kirish. Xalq donishmandligini o'zida jamlagan yapon haykulari necha asrlar osha adabiyot ixlosmandlarini o'ziga jalb etib kelmoqda. Adabiyot millat-u mamlakat tanlamaydi. Millatlar bir daraxt bo'lsa, adabiyot — boshi azim tog'lardan boshlanib, butun qir-u adir, qishlog'-u shaharni hayot suvi bilan tiriltiradigan ulkan daryodir. Yapon haykulari ham ana shunday bir irmoqchi, u juda ko'plab millatlar adabiyotida o'z ta'sirini qoldirgan. O'zbek adabiyoti ham bundan mustasno emas. O'zbek adabiyotida haykularning dastlabki namunalarini Rauf Parfi ijodida uchratgan bo'lsak, so'nggi yillar o'zbek adabiyotida F. Afro'z ijodida haykularni tarjima qilish jarayonida yangi janr — “tasbeh” dunyoga keldi.

Hayku shaklan va mazmunan ixcham janrdir. Yapon haykularidagi asosiy motiv tabiat manzarasi, go'zalliklarini tasvirlash hisoblanadi. F. Afro'z ijodidagi “tasbeh”larda esa tabiat tasviri lirik qahramon ichki olami, dunyoqarashi va sezimlarini ochib beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shakl va mazmun jihatidan hayku hamda tasbeh tubdan farqlanadi. Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” darsligida shunday deyiladi: “...badiiy asarda bosh mazmun — muallif ifoda etmoqchi va o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan g'oyadir, adabiy asarning janri, tili, xarakterlar, syujet, konflikt, kompozitsiya, peyzaj va hokazolar esa shu g'oyaga nisbatan shakl rolini o'ynaydilar. Badiiy asar yaratish — shu g'oyani yorqin ifoda eta oladigan va uning o'quvchi zehni yengillik bilan tug'ilishiga sabab bo'ladigan shaklni topa bilish

demakdir" [4; 159-b.]. Buyuk adabiyotshunos Izzat Sultonning ushbu ta'rifi aynan Farida Afro'z tasbehlariga eng yaxshi ta'rifdir. XXI asrning kishisi har tomonlama ixchamlikka intilayotgan bir davrda tasbehlar qisqa satrlar bilan keng ko'lamdor mazmun sarhadlarini ochishga xizmat qiladi. Lirikada shakl elementlari qisman chegaralangan bo'lsa-da, mazmun ko'lamini aslo kamaytirmaydi. Janrning shakli qisqargan sari so'zlar keskinlashadi, pafos kuchayadi. Yapon haykulari esa, asosan, peyzaj tasviri orqali inson va tabiat munosabatini ochib berishga qaratilgandir.

ASOSIY QISM

Yapon she'riyatida har bir so'z tom ma'noda oltindek qadrlanadi. Bu jihat, ayniqsa, "hayku"da yaqqol ko'zga tashlanadi. Hayku an'anaviy yapon adabiyotining qadimgi shakllaridan biri bo'lib, u butun dunyoda mashhurlikka erishgan. Suvga otilgan tosh o'zidan so'ng suv yuzasida go'zallik hosil qilganidek, bu janr atrofida ramzlar, assotsiatsiyalar, yashirin ma'nolar hosilasi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, bu janrda nafaqat shoirning aytganlari, balki sukunati, aytilmagan so'zlari, fikrlari ham muhim. Bu o'ziga xos to'liqsizlik, notugallik — "yodzyo" atamasi bilan ifodalanadi. Bu atama "hissiyotdan keyingi holat", "hissiy javob", "yurak aks-sadosi" deb ham talqin qilinadi. Shoirning bu janrdagi mahorati shundaki, she'rni "yarim" so'z bilan tugallash va o'quvchiga aytilgan fikrdan tashqarida o'zi ham tafakkur qilishga, his qilishga imkon berishida hisoblanadi. Fudzivara Teyka bu haqda shunday degandi: "Yodzyo"siz she'riyat yo'q". "Hayku" qofiyasiz, 3 misradan iborat va asosan 5-7-5 bo'g'indan iborat o'ziga xos janr hisoblanib, uning negizida tabiat kuzatuvlari yoki hayotning ma'lum bir lahzalarini eng minimal so'zlar bilan ifoda etish yotadi. An'anaga ko'ra, hayku yil fasllarini, ma'lum bir tabiat hodisalarini, masalan, sakuraning gullashi, yomg'ir tovushi yoki kuzgi barglar shiviri kabilarni tasvirlaydi. Bu janr ijodkorlari lahzani tasvir markaziga olishga harakat qiladilar, hissiy lahzalarni ushlay olishni yoki juda sodda, oddiy obrazlar, "tafsil"lar orqali chuqur ma'no-mohiyatni bera olishga urinadilar va buning uddasidan chiqadilar ham. "Hayku"da o'rnatilgan ma'lum punktuatsion qonun-qoidalar yo'q. Ayrim shoirilar, tarjimonlar haykuning har bir misrasini bosh harf bilan yozsalar, ayrimlari esa faqat birinchi so'znigina bosh harfda yozishni afzal ko'radilar. Shuningdek, she'r so'ngida ham punktuatsion maxsus qoidalar yo'q, nuqta ishlatish yoki ishlatmaslik ixtiyoriy hisoblanadi. Shakli formatdan tashqari haykuning eng asosiy jihatlaridan biri shuki, har doim tabiat tasvirida lakonizmga asoslanish, sodda va o'ta nafis tasvir bu janr ijodkorlarining asrlar osha o'zgaras tendensiyasi bo'lib qolmoqda. Tabiat dunyosi, atrof-muhit tasviri "hayku" janrining markaziy mavzusi hisoblanib, shoirilarni o'z atrofida kechayotgan juda oddiy va shu bilan birgalikda muhim lahzalarni ilg'ay olish va tasvirlay olishga undagan, ilhomlantirgan. "Hayku" boshqa yapon she'riy janrlaridan shakli va uslubiy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, "tanka" (besh misrali she'r) yoki "renga" (jamoaviy she'r) janridan "hayku"ning farqi undagi minimalizm, lahzalik kayfiyatni ifodalashdir. "Tanka" — "qisqa qo'shiq" degan ma'noni anglatib, 5-7-5-7-7 tarzidagi bo'g'inlardan tashkil topgan janrdir. "Hayku" esa undan keyinroq paydo bo'lgan. "Tanka"ning oxirgi misralaridan "kesib", "qirqib" olingan shakli — "she'rning debochasi, ochilishi" kabi ma'noni anglatgan va "hayku", aynan, "tanka"ni qisqartirish orqali hosil bo'lgan, degan qarashlar bor. "Hayku"ning yana bir jihati "kigo" — biror mavsumni anglatuvchi so'z ishtirok etishi qat'iy bo'lib, u tabiat bilan rishta bog'lash va she'rning tub mohiyati hamda kontekstda ma'lum bir g'oyani namoyon etish kabi vazifalarni bajaradi. Yapon she'riyatida tub millatga xos bo'lgan bir jihat bor: shoir guvoh bo'lgan tabiatdagi oddiy hodisalardan, mavsumiy holatlardan ilhomlanadi, hayratlanadi va bu holat "avare" yoki "mono-no avare" deb ataladi [3, p. 8].

XX asr O'zbek she'riyatida ham yapon she'riyati ta'sirida yangi shakli va uslubiy yangiliklar ko'zga tashlandi. Rus tili orqali kirib kelgan "hayku" janri tobora she'riyat muxlislari qalbidan chuqur joy ola boshladi. O'zbek she'riyatining mashhur vakili Rauf Parfi bu janrdagi she'rlarni tarjima qilishdan tashqari, o'zi ham "hayku"ning go'zal namunalarini yaratdi. Ustoz Rauf Parfining shogirdi Farida Afro'z ham bu janrga dastlab tarjima uchun murojaat qilgan bo'lsa, keyinchalik o'zi ham uchliklar yozdi va uni "tasbeh" deb atadi. O'zbek she'riyatida "hayku"dan ilhomlanib, yangi she'riy shakl, go'zal janr yaraldi. Farida Afro'zning ushbu tasbehi xuddi shu vaziyat haqidagi avtobiografik ruh kasb etsa, ajab emas:

U eski bir shaharning eski kulbasida

Eski kursida,

Yangilik yaratdi. [2,105-b]

"Tasbeh" so'zining lug'aviy ma'nosi "poklanish"ni anglatadi. Allohga yuzlanib, namoz o'qilganda, muqaddas so'zlarni aytayotganda "tasbeh"dan sanoq uchun foydalaniladi.

Hayku janri ustalaridan Kobayashi Issa shunday yozadi:

Mening vatanimda

Hatto yovvoyi maysa ham

Gilosdek qiyg'os gullaydi.

Haykuda tabiatdagi bir predmet ikkinchisiga qiyosan tadqiq qilinadi. Uch misralik bu asarda qofiya, turoq kabi o'lchovlar, tashbeh-u tashxis kabi san'atlar asosiy g'oyaga xizmat qilmaydi. Shoir vatanining go'zalliklari-yu, undan tuygan faxr tuyg'usini oddiy, ixcham tarzda ifodalaydi. Novatorlikni milliylik bilan uyg'unlashtira olgan F.Afro'z o'z tasbehlaridan birida shunday yozadi:

Meni tushungan
Odam

Mening Vatanim! [2,105-b]

Tasbehda haykudan farqli o'laroq, uch misrada lirik qahramonning botiniy va zohiriy olami ochib beriladi, ma'lum tasviriy va uslubiy vositalardan ustalik bilan foydalaniladi. Ushbu tasbehda Vatan shaxslantirilyapti, hudud, tug'ilgan zamin insonga qiyoslanyapti. Hayot sinovlarida toblangan kishi do'st-u dushman, yor-u birodarlar bilan sinalib, oxirida o'zi bilan o'zi yolg'iz qolib mushohada etganda, Vatan ham eng yaqin do'st ekanini anglab yetadi. Chunki

Vatan do'stlar kabi sotmaydi, xiyonat qilmaydi. Insonning butun bir umri, yaxshi-yu yomon kunlari, asosan, Vatanda kechadi. Quyidagi tasbehda esa inson va tabiat o'rtasidagi uzilmas rishta juda ustalik bilan tasvirlanadi: *Barmoqlarim gulga tekkizdim,*

*Yaproqlar siladim asta,
Kaftim chiziqlari uzaydi.[2,105-b]*

Ma'lumki, insonning umri, hayotini kaftdagi chiziqlarga qarab tahlil qiluvchi mutaxassislar "xiromant" deb ataladi. Xiromantiya sohasi ilmiy tibbiyot yoki psixologiya tomonidan ishonchli fan sifatida tan olinmagan. Ya'ni, u ko'proq ezoterik qarash tarafdorlari tomonidan ma'qullanadi. Xiromantlar qo'l kaftidagi hayot chizig'i, aql chizig'i, yurak chizig'i, barmoq shakli, kaft tuzilishiga qarab turli talqinlar berishadi.

Inson tabiatdan qancha uzoqlashgani sayin, ruhiyatida tushkunlik, jismoniy holatida zaiflik kuchayib boraveradi. Chunki biz tabiatning bir qismimiz. Asosiy to'rt unsur — havo, suv, olov, tuproqsiz inson umrini, hayotini tasavvur etib bo'lmaydi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, urbanizatsiya kuchli davlatlarda o'z joniga qasd qilish nisbatan ko'p uchraydi. Texnika rivojlangan sari inson tabiatdan uzoqlashmoqda. Bu esa mental, ruhiy va jismoniy zo'riqishning ortishiga olib kelmoqda. O'ta yuqori komfort va hayot sifati insonni tabiatdan uzoqlashtirib, umr ko'rish darajasiga ta'sir qilmoqda. Xo'sh, buning yechimi nima? Ijodkor aynan shu holat haqida so'zlaydi. Lirik qahramonning ichki holati, qalb sezimlari gul, yaproqlar kabi tabiatning bir bo'lagi vositasida ochib berilyapti. Umr, kaft chiziqlari kabi ramziy detallar esa hayotiy reallikni ochishga xizmat qilmoqda. Tabiat bilan bog'lanish, ruhiyatdagi, qalbdagi o'zgarishlarni inson va tabiatning oddiy, go'zal ko'rinishi — gulni silash epizodi bilan tasvirlanyapti. Asarda peyzaj, aslida, portretni yoritishga xizmat qilmoqda. Gul, yaproqlar tabiat tasvirini beruvchi peyzaj detallari bo'lsa-da, lirik qahramonning ruhiy holatini ochishga xizmat qilmoqda. Tasbehda gulga qo'llarini tekkizib, yaproqlarini silayotgan lirik qahramon tashqi ko'rinishi, portreti berilmagan bo'lsa-da, ruhiyati yengillashgan, katta ehtimol bilan yuzida nimtabassum jilvalari o'ynayotgan inson ko'z oldimizga keladi. Shoir o'z asarida lirik qahramonning holati, tashqi ko'rinishini prozadagidek ko'lamdor tasvirlay olmasligi mumkin. Portret til vositalari bilan yaqqol aks ettirilishi yoki shu bilan birga asar pafosi, tili, detallar yordamida obrazning portretini yashirin holatda tasvirlay olishi ham mumkin. Lirik qahramonni o'quvchiga tasvirlashga, ochiqlashga tasbehda bir so'z ham keltirilmagan. Biroq bu bizning tasavvurimizda obrazni jonlantirishga aslo to'siq bo'la olmaydi. Aksincha, peyzaj elementlari portretni ko'z oldimizga keltirishga ko'mak beradi. I. S. Turgenevning ta'biri bilan aytganda, "Hamma gap tafsilotlarda". Uch misradangina iborat tasbehda kichik tafsilot, detallar o'quvchini mushohadaga chorlaydi, insonning tabiatga naqadar bog'liq ekanligini yana bir bor yodimizga soladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tasbehtar hozirgi zamon kishisini nafaqat tabiatga, balki o'zini o'ziga qaytarishga yordam beradi. Ruhni, ongni tozalashni xohlagan, biroq shu bilan birga katta hajmli asar mutolaasiga vaqt bo'lmagan adabiyot ixlosmandlari uchun "tasbehtar" ayni muddaodir. Intellektual she'riyatni sevuvchilar uchun tasbeh ulkan bir javohirlar sandig'idir. Badiiy adabiyotdan faqat estetik zavq olishning o'zini yetarli deb hisoblamaydigan, ongni o'stirishni, fikrlash va xulosa qilishni kuchaytiruvchi asarlarni sevadigan kitob ixlosmandlariga tasbehtar o'z sarhadlarini ochadi. "Hayku" va "tasbeh" insonni o'ziga, tabiatga qaytarib, ruhiy poklikka, ezgulikka; o'tkinchi dunyo hoyu havaslaridan xiralangan ruhiyatni uyg'otishga xizmat qiladi. Bu ixcham janrlar insonlarga xitob, ruhiy mudroqdagi insonlar uchun uyg'otuvchi soat bongi bo'lib yangraydi. Bu janrning asl namunalarini ko'cha va xiyobonlarning diqqatga sazovor joylaridagi peshtaxtalarga yozib qo'yish maqsadga muvofiq bo'lardi. Faqat moddiyat uchun xizmat qiluvchi reklama bannerlari orasida bu she'rlar nafaqat go'zal atmosfera yaratish uchun, balki insonlarda ezgulikka xizmat qilishga ham rag'bat uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atabayeva G. Z. Genre and Stylistic Originality of Farida Afruz's Triplets and Japanese Haiku // Innovative Publication. – 2025. – Vol. 2, № 3. – March.
2. Farida Afruz. Tanlangan asarlar. O'zimni sog'inib. Tasbehtar. – Toshkent, 2023.
3. Hakutani Y. The Genesis and Development of Haiku in Japan // Haiku and Modernist Poetics. – New York: Palgrave Macmillan, 2009. – P. 8. – DOI: 10.1057/9780230100916_2.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B. 159.
5. Qozoqboy Yo'ldoshev, Muhayyo Yo'ldosheva. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016.